

BUXORO TARIXIY SHAHAR HUDUDIDA SAVDO INSHOOTLARI ARXITEKTURASI

Sa`dullayeva Nigora

SamDAQU “Madaniy meros obyektlarini asrash” kafedrası o`qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro shahrining tarixiy shahar qismida joylashgan tarixiy savdo inshootlari kelib chiqish tarixi, arxitekturası, tipologiyasi ularning vazifalari bo`yicha malumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: toq, tim, savdo markaz, bozor, Ark, Savdo gumbazi, kupol, Toqi Ordfurushon, Toqi Sarrafon, Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Tirgaron, chorsu

O`rta asrlar davri XVI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo`lgan oraliqni o`z ichiga oladi. Bu davrda xonliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va geografik o`rni hamda shaharsozlik shakllangan. Xalqaro savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishiga yanada kengroq yo`llar ochilgan. Buxoro xonligi, ayniqsa, Shayboniylar Movarounnahmi zabt etgach, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida o`z mavqeyini oshib borishiga olib keldi. Shayboniylar sulolasi davrida Buxoro shaxristoni kengaytirilib, ark uning ichida qolib ketgan. Ayniqsa, Abdullaxon hukmronligi davrida Buxoro poytaxt shaharga aylantirilgan va shaharsozlik yangi bosqichga ko`tarilgan. Shuning uchun akademik V.V.Bartold Abdullaxonni “Buyuk quruvchi” deb atagani bejizga emas. Abdullaxon shahar devorlarini, darvozalar, ayniqsa, shahar tashqi ko`rinishini yangilashga buyuradi. XVI asrning ikkinchi yarmida shahar kengaytirilib Jo`ybori shayxlar mulki hisoblanmish shaharning g`arbiy qismi ham devor bilan o`rab olingan. Binolarni ansambl tarzida joylashtirishga e`tibor berilib shahar strukturasi qayta tuziladi.

Abdullaxon hukmronligi davrida Buxoroda savdo markazlari qurilishiga ko`proq e`tibor qaratila boshlandi. XVI asrda ularning arxitekturası yangıcha tendensiyalar va yo`nalishlar asosida qad ko`targan. Binokorlik sohasida keng ko`lamda o`zgarishlar boshlanib, u savdo markazlari arxitekturasida ratsionalizm oqimining paydo bo`lishi bilan aksini topgan. Ratsionalizm oqimi nafaqat yangi konstruktiv va dekorativ yechimlarda namoyon bo`libgina qolmay, yangıcha



1-rasm. Toqi Zargaron



2-rasm. Toqi Telpakfurushon

kompozitsion g`oyalarning paydo bo`lishi, eski an`analarni ya`ni arxitektura inshootini faqatgina frontal idrok yetib qolmasdan uni ratsional tashkil qilishni taqozo qildi.



3-rasm. Toqi Sarafon

Buxoro shahrida savdo-sotiq rivojlanayotgani, har xil shaharlardan savdogarlarning kirib kelishi, savdo-sotiq binolariga bo`lgan talabni oshirdi. Buxoro iqlimi yozda quruq issiq, qishda sovuq bo`lganligi sababli usti yopiq savdo inshootlari qurish talabi oshdi. Buxoro me`morlari oldida turgan yangi masalalardan biri, katta maydonni egallagan savdo markazlarini ustini yopish masalasi edi. XVI asrda O`rta Osiyo me`morchiligida yuksak yutuqlardan biri, qobiqli tomyopmalar konstruksiyasi va texnologiyasi ishlab chiqilganligidir. Bu texnologiyalarning yaratilishi katta hajmdagi savdo markazlari – bozorlarni ustini yopish masalasini hal qildi.

Chunonchi, asosiy chorrahalarda Toqi Ordfurushon, Toqi Sarrafon, Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Tirgaron nomli beshta Chorsu tipidagi gumbazli savdo inshootlari bunyod etilgan. Bu savdo gumbazlarining birinchisi (Toqi Ordfurushon) va

oxirgisi (Toqi Targaron) bizning asrimizda vayrona holiga kelganligi tufayli buzib tashlangan. Qolgan uchtasi hozirgi kunda ham salobat to'kib, shaharning asosiy yo'nalishlarini belgilab turibdi. Bu savdo gumbazlari bugungi kunda aholi orasida birinchi, ikkinchi, uchinchi gumbaz (ba'zilar "kumpol" deyishadi, bu ruschada "Kupol" so'zining buzilib ishlatilishidir) yoki toq deb yuritiladi¹.

Toqi Sarrofon. (fors. — sarroflar toqi) — Buxorodagi me'moriy yodgorlik (16- asr), pul almashtiradigan bosh savdo gumbazi (1.5-rasm). Shahristonning 2 ko'chasi kesishgan joyda, qadimgi Shohrud arig'i ustida sarroflarning do'konlari qurilgan. Toqi sarrofon eng kichik gumbazdir. 16-asr 2-yarmida zalning 4ta kesik burchaklaridan biriga masjid, boshqasiga Sarrofon hammomi, qolgan 2 tasiga sarrofon do'konlari kelib tutashgan. Masjidga kiraverishda "Bu qurilish 1534—35 yillari Ubaydulla Bahodirxon podsholigi davrida yakunlandi" degan yozuv saqlangan. Bu atrofdagi binolarga ham tegishli bo'lishi mumkin. Shayboniylar davrida Buxoro xususiy tadbirkorlik, qarz berish va pul almashtirish markaziga aylangan. Buxoroda sarroflar nomi bilan bog'liq uylar, savdo gumbazi, karvonsaroy, masjid, hammom va boshqa mavjud bo'lgan.

Toqi Telpakfurushon. Toqi Telpakfurushon tarxda olti qirrali bo'lib, binoning bosh markaziy gumbazi miyonsaroy ustida o'rnatilgan. Atrofdagi kichik do'konlar esa gumbazchalar bilan yopilgan. Toq ichida bosh kiyimdan tashqari, kitob sotuvchilar va muqovasoz ustalarning do'koni bo'lgan. Shu bois ushbii bino ilgari "Toqi Kitobfurushon" deb ham nomlangan². Bino bilan atalgan. Bosh gumbazi 6 qirrali devor ustiga o'rnatilgan, atrofi — ko'cha, choxarso'ki Axanin, Toqi kitobfurushon, Toqi Xo'ja Muhammad Parron kabi nomlar ko'chalardan kirish qismlari esa kichik gumbazchalar bilan yopilgan.

Toqi Zargaron. Shulardan uchinchi gumbaz yoki Toqi Zargaron deb nomlanadigani qadimiy shahriston chorrahasida joylashgan bo'lib, XV asr boshida ham bu joy Chorsu deb nomlanganligi ma'lum. Toqi Zargaron deb atalashining o'zi nomi bilan zargarlar gumbazi ekanligidan dalolat berib turibdi.

Toqi Ordfurushon - un maxsulotlari sotiladigan markaz (XVI asr). Ushbu savdo gumbazi hajmi jihatdan kichikroq bo'lgan. Registon maydonining pastrog'ida janubiy g'arb tomonida joylashgan. Konstruktsiyasi va gumbaz qurilish texnologiyasi jihatdan Toqi Sarrofon gumbaziga o'xshash bo'lgan.

Toqi Targaron - qurol yarog' sotiladigan markaz (XVI asr). Toqi Ordfurushondan g'arbda joylashgan. Ushbu gumbaz hajmi jihatdan kattaroq bo'lgan va Toqi Zargaron gumbaziga o'xshash bo'lgan.

Abdullaxon timi – Buxorodagi eng katta usti berk savdo rastasi. Toqi Zargaronga ulangan savdo ko'chasi bo'ylab unga yaqin joyda Abdullaxon timi qurilgan bo'lib, uying ham me'moriy yechimlari yopiq, o'rta mahobatli va tektonik hajmli ko'rinishida ishlangan. Ichida 55 ta savdo ravoqi bo'lgan ushbu tim kamyob va qimmatbaho gazmollar savdosiga mo'jallangan.

Abdullaxon timi asosi murabba tarxli (39x42m), 3tomoni berk, bosh tarzidagi peshtoq orqali kiriladi. Devorlarining 2 tomonida ravoqli tokchalar joylashgan. Baland gumbazli bostirma timni o'rab turadi. Gumbaz ostidagi ravoqli teshiklardan yorug' tushadi. Miyonsaroy atrofi dalon. Dalondagi mayda ravoklar ichida gumbaz tomli do'konlar bo'lgan. Bino pishiq g'ishtdan (22x27x3,5sm) qurilgan, devorlari ganch suvoqi, naqshin bezaklari deyarli saqlanmagan. O'tmishda bu yerda shoyi, jun gazlama bilan savdotsotiq qilingan. Abdullaxon timi Buxoro shahridagi savdo rastalari, chorsu—toq binolari ichida eng kattasi va shaklu shamoyili jihatidan ancha murakkab va xushbichim hisoblanadi. Bir necha bor ta'mirlangan, savdo do'konlari joylashgan.

Buxoro amirligi davri me'morchiligi haqida gapirar ekanmiz o'sha davrga xos bo'lgan bino va inshootlar tipologiyasini taxlil qilishga e'tiborni qaratish zarur.

Ark – asosiy bosh qarorgox. Oxirgi arxiologiya tadqiqotlariga asoslanib yoshi 2500 deb belgilangan Buxoro shahri bir necha marta o'z hududini o'zgartirgan bo'lsa ham, uning arkining o'rni ko'p davrlardan beri o'zgargani yo'k. XVI asrda ham shaharning asosiy unsuri shu inshoot hisoblangan va markaziy ko'chalarning yo'nalishini uning joylashishiga qarab belgilangan. Arkka Siyovush asos solgan degan fikr mavjud. Rivoyatlarga ko'ra Siyovush arkni bir necha marta bunyod etgan va lekin inshoot har safar buzilib ketavergan. Nihoyat olimu munajjimlarning maslahati bilan ark Katta Ayiq (xalqda Yetti yulduz, Yetti qaroqchi yoki Cho'mich) yulduz turkumiga o'xshash qilib qurilgach ark istehkomi bunyod etilgan. Har holda arkning chegarasi bo'ylab ko'rinishi o'sha yulduz turkumiga o'xshab ketadi³.

Balandligi taxminan 20 metr bo'lib, maydoni 4 gektar bo'lgan Buxoro arki Shayboniylar davrida boshqaruv shaharchasi tarzida zich holda qurilgan. Shundan so'ng uning devori ham, ustidagi imoratlar ham bir necha marta qayta qurilgan. Dastlab uning sharq va g'arb tomonida 2 ta darvozasi bo'lgan. Bugungi kunda g'arb tomonida ikki gumbazcha bilan tugallangan guldasta bezab turgan peshtokli darvozaxona saqlanib qolgan. Uning eng yuqori qismida nog'oraxona deb nomlanuvchi oldi peshayvonli xonachalar turkumi saqlanib qolgan. Darvoza dolon orqali o'tadigan burama pandus orqali yuqoriga – ark saxniga olib chiqadi. Dolon yon devorlarida hibsonalar va sayisxonalar olib boradigan yo'lak joylashgan. U XVIII asr oxirlarida qurilgan bo'lib, ba'zi konstruktsiyalari shu joyda bo'lgan bugungi shunday imorat qurilishini tashkil etadi. Bu masjid maxalla masjidlari singari uch tomoni yog'och ustunli ayvon bilan o'rab olingan xonaqoxdan iborat. Masjiddan janubga qarab salomxonaga olib boruvchi tor ko'cha boshlanadi. Uning markaziy qismida chorsu deb ataluvchi chorraxasi bor. Shu yerdan sharq tomonga qarab devonbegi, qushbegi xonalari, mahkamalar joylashgan. Uning yonida tosh yotqizilgan atrofi ikki qatorli baland yog'och ustunlari bilan o'ralgan hovli ko'rinishli yozgi saroy joylashgan. Bu saroyning naqshli peshtoqi 1605 yilda qurilgan.

Darvozadan kirilgach hovli oldi Buxoro turar – joylariga xos g'ulomgard deb yuritiluvchi ko'ndalang devor bilan to'silganligi ko'rinadi. To'rtburchak hovlining to'rida esa Nurota marmaridan qilingan taxtiravon joylashgan. Bu yerda amirlarning toj kiyish (taxtga o'tqazish) marosimlari ijro etilgan hamda elchilar qabul qilingan. Hovlining janubida mehmonxona, korixonalar va xazina saqlanadigan yerto'lalar joylashgan. Ark darvozasidan janubga Registon maydoniga qaragan amir shohayvonchasi qurilgan. Ammo arkdagi binolarning aksariyati inqilob kunlari va undan keyin buzilib ketgan

Savdo gumbazi. Shayboniylar sulolasi davrida Buxoro shaxristoni kengaytirilib, ark uning ichida qolib ketgan. Yuqorida aytib o'tilgandek, Abdullaxon shahar devorlari, darvozalari va fasllarni qayta qurdirgan. XVI asrning ikkinchi yarmida shahar kengaytirilib Juybori shayxlar mulki hisoblanmish shaharning g'arbiy qismi ham devor bilan o'rab olingan. Binolarni ansambllar tarzida joylashtirishga e'tibor berilib, shahar strukturasi qayta tuziladi. Toqi Zargaron- Binoni tarxi kvadrat ko'rinishga ega. Uning markaziy kompozitsion o'qlar bo'ylab to'rt peshtoq to'rtala ko'cha tomonga qaratilgan. Inshootning markaziy qismi sakkizta o'zaro kesishgan toqlar vositasida ko'pburchakli ustivor ustiga qo'ndirilgan ulkan gumbazdan iborat. Gumbaz osti ustivorining o'n olti panjarasi bor. Ichki

tomonida esa toqlar kesishuvidan xosil bo'lgan gajjak (shitovidnyy parus) devorlar bilan ko'pburchakni bog'lab turibdi. Markaz gumbaz ichidagi bino burchaklari to'rtta va uning atrofidagi usti kichkina gumbazchalar bilan yopilgan yo'lak qismi esa sakkiz ravoqli qilib qurilgan. Yo'lak tashqi devorining ichkari tomonida yana 16 ta ravoq ishlangan. Har qaysi peshtoqning ikki yon qismida (old tomonida) yana 2 tadan ravoqlar ishlangan bo'lib, ular hajmi 36 ta do'kon va ustaxonalar joylashishiga mo'ljallangan⁵.

Abdullaxon Timidan janubga qarab yo'nalgan ko'chaning ikki tomoniga rasta, do'kon va ustaxonalar qurilgan bo'lib, mazkur ko'cha zich holda sharq tomonga nisbatan singan yo'nalish bo'ylab Bozori Kord hammomi yonidan o'tib Toqi Telpakfurushonga olib chiqadi. Telpakfurushon toqi savdo gumbazi o'zining me'moriy yechimi jihatidan boshqa savdo gumbazlari va umuman gumbazli binolar ichida ajralib turadi. Uning markaziy gumbazi 6 ta pilpoyaga o'rnatilgan. Gumbaz va mahrut orasi pastak dumaloq ustivor shakliga ega. Gumbaz markazi va mahrut devorlaridan yorug'lik tushadigan maxsus tuynuklar ishlatilgan. Toqi Telpakfurushonning shimoliy yo'lagida balxi gumbazlari, ichkariroqda to'rtta katta ravoqqa engashtirilgan kichik ravoqchalarga qurilgan gumbaz, gajjak qanosli va ustivorli gumbaz singari turli konstruksiyalar qo'llanilgan. Undan janubiy sharqqa va janubiy g'arbgga qarata qo'sh ravoqli ikki kirgash yo'li va xuddi shu tarzidagi to'rt tomonga qaratilgan peshtoqlar ishlatilgan.

Yana bir savdo gumbazi bu oldingi ikkitasidan janubiy sharqda joylashgan (Buxoroda "1 – kumpul" ya'ni "kupol" - "1 – gumbaz" deyishadi) Toqi Sarrafon

("sarrof" pul almashtiruvchi) gumbazidir. Bu savdo gumbazi oldingi ikkitasidan kichikroq bo'lib, uning asosini "linga zarba" usulida o'zaro kesishgan to'rtta katta toq tepasidagi dumaloq ustivorga o'rnatilgan ancha tik ko'rinishli gumbaz tashkil etadi. Gumbaz yuqorisidagi sakkizta kichikroq pilpoyalar ustiga yana bir kichik gumbazcha o'rnatilgan. Binoning shimoliy sharqiy burchagidan uning yonidan oqib o'tuvchi Shohrud arig'i zinapoyali tushish yo'lagi o'rnatilgan⁷.

Karvonsaroy. Toqi Zargarondan janubga chiqadigan peshtoqi yonida bizning asrimizda buzib tashlangan o'sha davrda "Hind karvonsaroyi" deb atalgan karvonsaroy bo'lgan. Buxoroda – Hind karvonsaroyi Toqi Telpakfurushon va Toqi Zargaron oralig'idagi savdo rastalari qatorida joylashgan. Ko'rinishidan muxtasham bo'lmagan bu bino 400 m2 ga ega filxonasi (fillar bilan kelgan hind savdogarlari fillarini saqlaydigan joy) bo'lgan. Boshqa karvonsaroylardan shu jihati bilan ajralib turuvchi bu bino xalq orasida "Saroyi Fil" deb atalgan. Karvonsaroy tarxda to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, pastki chap burchagi Toqi Zargaron bilan qo'shilib, birikib ketgan. Bu usul binolarni yakkalanib qolmasdan, bir butun kompozitsiya hosil qilishda xizmat qilgan. Karvonsaroyda 27 ta xujralar bo'lib, ichki hovliga chiqadi. Xujralar katta bo'lmagan 4400 x 2000 x 3500 o'lchamlarga ega. Optimal tanlagan o'lchamlar xujralarda mo'tadil mikroiklim yaratgan. Karvonsaroylarning bosh tarzida savdo do'konlari joylashtirilgan bo'lib, u ko'chadagi savdo rastalariga qo'shilib ketadi. Ko'chadan savdo rastalari vazifasida turgan bu binoga kirib borsangiz sizni ichki hovlili shinam xujralar qatori qarshi oladi. Bu binoning ikki funktsiyaliligini ko'rsatadi. Ya'ni binodan maksimal darajada foydalanilgan. Demak, binoni shahardagi joylashishiga qarab moslashgan. Chunki u shahardagi asosiy savdo tizimida joylashgan. 1933 yilga qadar Buxoro shahri hududida (hozirgi tarixiy hudud) 61 ta karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan.



4-rasm. Hind karvonsaroyi



5-rasm.Hind karvonsaroyi ichki ko`rinishi.

Tim. Hind karvonsaroyidan quyiroqda 1577 yilda qurilgan savdo inshooti – Abdullaxon Timi joylashgan. Agar Toq va Chorsularda kechasi do`kon va ustaxonalar yopilib, binoni kesib o`tgan ko`chalar o`tish joyi sifatida foydalanilgan bo`lsa, Tim yopiq imorat tarzida ishlatilgan va shu jihati bilan bugungi kundagi katta savdo inshootlarini eslatadi. Abdullaxon Timi kamyob va qimmatbaxo gazmollar savdosiga mo`ljallab qurilgan. Bu imorat tarxi ham kvadrat shaklida bo`lib, binoning bosh kirish yo`llari Toqi Zargarondan Toqi Telpakfurushonga boriladigan savdo

ko`chasiga qaratilib, ko`chaning sharqiy betida qurilgan. Bino tarzining markazida bir asosiy va ikki chekkasiga yana ikkita kichikroq peshtoqli eshiklar o`rnatilgan. Imorat markazida sakkiz burchakli pastak ustivorga katta asosiy gumbaz o`rnatilgan. Uning sharq va g`arbida asosiy yo`lak ustiga cho`zinchoq shaklidagi tuynuklar mavjud. Bino ichida jami 55 ta savdo ravoqlari joylashgan.

Xulosa: Buxoro tarixiy shahar arxitekturasi binolar tipologiyasida turli xil savdo inshootlari mavjud. Bular: toqi, tim, karvon saroy, rasta

Adabiyotlar:

1. Axmedov M.K. Ansamblevaya zastroika: traditsii i preymstvennost. Arxitektura Uzbekistana. Almanax. – Tashkent: “Gafur Gulyam”, 1985. – 79 s.
2. Vamberi G. Istoriya Buxary ili transaksanii (s drevneyshix vremyon do nastoyayuyego). Perevod A.I.Pavlovskogo. Rukopis.
3. Axmedov M.K. O`rta Osiyo me`morchiligi tarixi. – O`quv qo`llanma. Toshkent: “O`zbekiston”, 1995. – 140 b.
4. Anette Gangler, Heinz Gaube, Attilio Petruccioli. Bukhara – The Eastern Dome of Islam (Urban Development Urban Space Architecture and Population). –217 p.

